

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLYAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	
HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSIALARNING ROLI.....	203
Sapayeva Fazilat Norbayevna	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA EKO-SANOAT PARKLARINI TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI BAHOLASH USULLARI	207
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING TASHKILIY VA HUQUQIY ASOSLARI	212
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
BARQAROR RIVOJLANISH (ESG) PRINSIPLARINING KOMPANIYA BRENDI QIYMATI VA JOZIBADORLIGIGA TA'SIRI	217
Dilfuza Matisakova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	224
Raximova Lolaxon Avazovna	
MEHNAT INTIZOMINING KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	228
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
MINTAQA IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIBBIY TURIZM XIZMATLARINING EKONOMETRIK BAHOLANISHI.....	237
Yusupova Mexribon Uktamovna	
KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHNING RAQAMLI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH.....	245
Jo'rayev Po'latjon Komiljon o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	251
Madaminova Feruza Tursunboy qizi	
YASHIL INVESTITSIYALARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	259
Raximova Shaxnoza Xamzayevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TAYYOR MAHSULOTLAR EKSPORTINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TA'MINOT YO'LLARI.....	263
Esanov Yusufjon Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT: MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	267
Sultonov Shahzod Shavkat o'g'li	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	275
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI SHAROITIDA MILLIY EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING MEXANIZMLARI.....	281
Jumayeva Zamira Bustonovna	
MARKAZIY OSIYO UCHUN GEOSIYOSIY RISK (GPR) INDEKSINI ISHLAB CHIQISH	285
Qodirova Laylo Otabekovna	
BIRLASHGAN ARAB AMIRLIK LARI STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	289
Elmurod Sodiqov Shomurod o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	295
Abduvaliyev Zafar Mahmudovich	
AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLAR ISHLAB CHIQARISHDA MAHALLIYLASHTIRISH VA TA'MINOT TARMOG'INI DIVERSIFIKATSIYALASH SAMARADORLIGI.....	301
Asadov Elyorbek Kandiayrovich	



INFRATUZILMA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN ZARUR OBYEKTLAR, INSTITUTLAR, RESURLAR VA XIZMATLAR MAJMU'I.....	307
Rustamov Sultonbek Bekzadovich	
TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK PARADOKSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	315
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
"YASHIL" SANOAT SIYOSATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI.....	323
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG'LARI HISOB VA ULARDAN FOYDALANISH USTIDAN ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH.....	330
Murtozayeva Xusnora Erkin qizi	
KORXONANING BREND EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo o'g'li	
AGRAR VA SANOAT TARMOQLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ORQALI YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	341
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING ENERGIYA TA'MINOTIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI.....	347
Jo'ramurodova Feruza Mardon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSION STRATEGIYALARNI BOSHQARISH	353
Nazarova Nigora Yusufvna	



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSION STRATEGIYALARNI BOSHQARISH



Nazarova Nigora Yusufvna
Yangi O'zbekiston universiteti (New Uzbekistan University)
Sanoat boshqaruvi – innovatsiyalar va biznesni rivojlantirish
yo'nalishi magistranti
ORCID: 0009-0006-2734-8981
E-mail: nigora95nazarova@gmail.com

Annotation. This article comprehensively investigates the impact of digital transformation processes on financial stability and the effectiveness of investment strategies in Uzbekistan's industrial and energy sector enterprises. The purpose of the study is to assess, using econometric methods, the impact of the level of digitalization on enterprises' profitability, working capital, and investment indicators, as well as to develop an optimal management model. The study was conducted using the official financial statements of 35 large and medium-sized industrial enterprises in Uzbekistan for 2021–2025, applying descriptive statistics and multiple regression analysis. The results show that enterprises with fully implemented digital management platforms achieved an average reduction of 14.8% in operating expenses, a 16.4-day shortening of the working capital cycle, and an increase in return on equity (ROE) to 21.6% ($R^2=0.784$, $p<0.001$). The scientific novelty of the study lies in the development, for the first time using the example of Uzbekistan's industrial enterprises, of an integrated econometric model combining the digitalization index, firm size, and financial leverage. Based on the findings, practical recommendations have been formulated regarding the implementation of ERP/BI systems, dynamic working capital management, and the reduction of investment risks. These recommendations are of practical importance for industrial enterprise managers and public administration bodies.

Keywords: digital transformation, financial stability, investment strategy, ERP systems, corporate finance, econometric modeling, profitability (ROE), working capital management, risk management, industrial enterprises.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston sanoat va energetika sektori korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining moliyaviy barqarorlik va investitsion strategiyalar samaradorligiga ta'siri kompleks tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi — raqamlashtirish darajasining korxonalarning rentabelligi, aylanma kapitali va investitsion ko'rsatkichlariga ta'sirini ekonometrik usullar yordamida baholash hamda optimal boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot 2021–2025-yillar davomida O'zbekistondagi 35 ta yirik va o'rta sanoat korxonasining rasmiy moliyaviy hisobotlari asosida tavsiflovchi statistika va ko'p omilli regressiya tahlili yordamida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli boshqaruv platformalarini to'liq tatbiq etgan korxonalarda operatsion xarajatlar o'rtacha 14,8% ga kamaygan, aylanma kapitalning aylanish sikli 16,4 kunga qisqargan hamda o'z kapitali rentabelligi (ROE) 21,6% gacha ko'tarilgan ($R^2=0,784$, $p<0,001$). Tadqiqotning ilmiy yangiligi — raqamlashtirish indeksi, korxona hajmi va moliyaviy richag omillarini birlashtirgan integratsiyalashgan ekonometrik modelning O'zbekiston sanoat korxonalari misolida birinchi marta ishlab chiqilganligidadir. Olingan natijalar asosida ERP/BI tizimlarini joriy etish, aylanma kapitalni dinamik boshqarish va investitsion risklarni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirilgan bo'lib, ular sanoat korxonalari rahbariyati va davlat boshqaruvi organlari uchun amaliy ahamiyatga ega.



Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, moliyaviy barqarorlik, investitsion strategiya, ERP tizimlari, korporativ moliya, ekonometrik modellash, rentabellik (ROE), aylanma kapital boshqaruvi, risk-menejment, sanoat korxonalari.

Аннотация. В данной статье комплексно исследуется влияние процессов цифровой трансформации на финансовую устойчивость и эффективность инвестиционных стратегий предприятий промышленного и энергетического секторов Узбекистана. Цель исследования — с помощью эконометрических методов оценить влияние уровня цифровизации на показатели рентабельности, оборотного капитала и инвестиционной деятельности предприятий, а также разработать оптимальную модель управления. Исследование проведено на основе официальной финансовой отчетности 35 крупных и средних промышленных предприятий Узбекистана за 2021–2025 годы с применением описательной статистики и многофакторного регрессионного анализа. Результаты показали, что на предприятиях с полностью внедрёнными цифровыми платформами управления операционные расходы сократились в среднем на 14,8%, цикл оборотного капитала — на 16,4 дня, а рентабельность собственного капитала (ROE) достигла 21,6% ($R^2=0,784$, $p<0,001$). Научная новизна исследования заключается в разработке — впервые на примере промышленных предприятий Узбекистана — интегрированной эконометрической модели, объединяющей индекс цифровизации, размер предприятия и финансовый рычаг (левередж). На основе полученных результатов сформулированы практические рекомендации по внедрению ERP/BI-систем, динамическому управлению оборотным капиталом и снижению инвестиционных рисков. Предложенные рекомендации имеют практическое значение для руководителей промышленных предприятий и органов государственного управления.

Ключевые слова: цифровая трансформация, финансовая устойчивость, инвестиционная стратегия, ERP-системы, корпоративные финансы, эконометрическое моделирование, рентабельность (ROE), управление оборотным капиталом, риск-менеджмент, промышленные предприятия.

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiy chaqiriqlar va Sanoat 4.0 (Industry 4.0) konsepsiyasining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlarni o'z boshqaruv hamda moliyaviy arxitekturasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga rag'batlantirmoqda. Sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlikni saqlab qolish va uzoq muddatli barqaror o'sishga erishish bevosita korporativ moliya hamda menejment integratsiyasining sifatiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida [1] sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish orqali moliyaviy shaffoflikni ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalarga ega korxonalar [2; 3] an'anaviy boshqaruv usullaridan foydalanadigan korxonalarga nisbatan bozor o'zgarishlariga tezroq moslashadi va moliyaviy risklarni samaraliroq boshqaradi.

Shu bilan birga, amaliyotda raqamli transformatsiyaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora oshib bormoqda va ushbu sarmoyalarning moliyaviy natijalarga ta'sirini miqdoriy jihatdan aniq baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, raqamlashtirish loyihalarini tizimli va o'zaro uyg'un tarzda amalga oshirish, moliyaviy hamda operatsion boshqaruv bo'linmalari o'rtasida samarali axborot almashinuvini ta'minlash strategik qarorlar sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining sanoat va energetika sektoridagi yirik va o'rta korxonalari, predmeti sifatida esa ularning raqamli transformatsiya jarayonlari bilan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik tanlangan. Tadqiqotning maqsadi — sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini ekonometrik va statistik usullar yordamida baholash hamda menejment va moliyaviy rejalashtirish integratsiyasiga asoslangan optimal investitsion strategiyalar modelini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: raqamlashtirish darajasi bilan rentabellik ko'rsatkichlari o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash; raqamli boshqaruv vositalarining aylanma kapital samaradorligiga ta'sirini baholash; investitsion qarorlar sifati va risk-menejment amaliyotining raqamlashtirish darajasi bilan bog'liqligini o'rganish. Tadqiqotda ishchi gipoteza sifatida quyidagilar ilgari surildi: korxonaning raqamlashtirish indeksi yuqori bo'lgan sari, uning o'z kapitali rentabelligi ham yuqori bo'ladi; raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish aylanma kapital siklining qisqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; korxona hajmi va moliyaviy richag darajasi ROE ko'rsatkichiga qo'shimcha statistik ta'sir ko'rsatadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Menejment va moliya fanlarining tutash nuqtasi hisoblangan korporativ moliyaviy menejment sohasi korxona qiymatini maksimallashtirish, kapital strukturasi optimallashtirish va investitsion risklarni boshqarishga qaratilgan. Bierman va Smidt [4], Damodaran [5], Brigham va Ehrhardt [6], shuningdek, Gitman va Zutter [7] hamda Ross, Westerfield va Jaffe [8] kabi yetakchi olimlarning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, strategik qarorlarni moliyaviy modellar va real vaqt rejimidagi ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Druckerning [9] boshqaruv nazariyasi esa moliyaviy va operatsion jarayonlarni integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi. Kapital strukturasi nazariyasining klassik asoschilari — Modigliani va Miller [10], Jensen va Meckling [11] hamda Myers [12] — moliyaviy richag va agentlik xarajatlarining korxona qiymatiga ta'sirini nazariy jihatdan asoslab bergan, biroq ushbu nazariyalarda raqamli boshqaruv omili alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilmagan.

Raqamli transformatsiya sohasidagi tadqiqotlar [13; 14; 15; 16] raqamli aktivlarning korxona operatsion va moliyaviy ko'rsatkichlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Wamba va boshqalar [17] katta ma'lumotlar tahlili (big data analytics) va dinamik qobiliyatlar (dynamic capabilities) o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilib, raqamli infratuzilmaning moliyaviy natijalarga ta'sirini tasdiqlagan. Kaplan va Norton [18] strategik xarita (strategy map) konsepsiyasi orqali nomoliyaviy va moliyaviy ko'rsatkichlarni o'zaro bog'lash zarurligini asoslagan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Mustafaqulov [19] O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish omillarini, Tursunov [20] sanoat korxonalarida aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligini, Vohidov [21] esa raqamli transformatsiya sharoitida korporativ boshqaruv samaradorligini tadqiq qilgan. Karimov va Vaziriy [22] korporativ moliya va investitsion jozibadorlikni oshirish strategiyalarini, Ziyayev [23] esa sanoat korxonalarining investitsion va risk-menejment strategiyalarini o'rgangan. Ushbu tadqiqot muallifning ilgari amalga oshirgan tadqiqotlariga ham asoslanadi [24]. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida raqamli transformatsiyaning sanoat korxonalari moliyaviy ko'rsatkichlariga miqdoriy ta'sirini baholash hamda investitsion strategiyalarni avtomatlashtirish masalalarini yanada chuqurroq o'rganish uchun keng ilmiy imkoniyatlar mavjud. Mazkur yo'nalish ushbu tadqiqotning ilmiy yo'nalishi va yangiligini belgilaydi.

Jadval 1. Adabiyotlar tahlili

Muallif	Yil	Tadqiqot yo'nalishi	Asosiy xulosa	Tadqiqotdagi bo'shliq
Bierman & Smidt [4]	2012	Kapital byudjetlashtirish	Investitsion loyihalarni NPV/IRR usullarida baholash samarali	Raqamli texnologiyalar ta'siri hisobga olinmagan
Damodaran [5]	2015	Korporativ moliya	Kapital tannarxi va qiymatlash modellari ishlab chiqilgan	Rivojlanayotgan bozorlar konteksti chuqur yoritilmagan
Bharadwaj va b. [13]	2013	Raqamli biznes strategiyasi	Raqamli aktivlar operatsion samaradorlikni oshiradi	Miqdoriy o'lchov mexanizmi umumlashtirilgan
Kaplan & Norton [18]	2004	Strategik boshqaruv	Moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni bog'lash zarurligi asoslangan	ERP integratsiyasi bilan bog'liqlik ko'rsatilmagan
Vial [15]	2019	Raqamli transformatsiya	RT kontseptual asoslari va yo'nalishlari tizimlashtirilgan	Amaliy-empirik dalillar yetarli emas
Mustafaqulov [19]	2021	Investitsion muhit	O'zbekistonda investitsion jozibadorlik omillari aniqlangan	Sanoat korxonalari darajasidagi tahlil chuqurlashtirilmagan
Tursunov [20]	2022	Aylanma kapital	Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan	Raqamli boshqaruv vositalari bilan bog'liqlik o'rganilmagan
Vohidov [21]	2024	Korporativ boshqaruv	Raqamli transformatsiya korporativ boshqaruv samaradorligini oshiradi	Ekonometrik baholash cheklangan

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot miqdoriy (quantitative), korrelyatsion-ekonometrik dizayn asosida amalga oshirildi va 2021–2025-yillarni qamrab olgan panel ma'lumotlar tahliliga asoslanadi. Tadqiqotning empirik bazasini ushbu davr mobaynida O'zbekiston Respublikasidagi 35 ta yirik va o'rta sanoat korxonasi (ishlab chiqarish, neft-gaz uskunalari va mashinasozlik tarmoqlari)ning rasmiy moliyaviy hisobotlari — №1-shakl “Balans” va



№2-shakl “Moliyaviy natijalar to’g’risida hisobot” — hamda menejment auditi natijalari tashkil etadi. Tanlanma raqamlashtirish darajasiga ko’ra uch guruhga ajratildi: yuqori darajada raqamlashtirilgan ($DI > 75\%$) — 10 ta korxona, o’rta darajada raqamlashtirilgan ($50\% \leq DI \leq 75\%$) — 15 ta korxona va raqamlashtirish darajasi nisbatan past ($DI < 50\%$) — 10 ta korxona.

Tadqiqotda miqdoriy va sifat tahlili usullarining kompleks kombinatsiyasidan foydalanildi: tavsiflovchi statistika, korrelyatsion tahlil, guruhlararo taqqoslash va ko’p omilli chiziqli regressiya (OLS) modeli qo’llanildi. Korxonalarning moliyaviy holati va rentabellik darajasini baholash uchun quyidagi asosiy nisbatlar hisoblab chiqildi: O’z kapitali rentabelligi ($ROE = (\text{Sof Foyda} / \text{O’z Kapitali}) \times 100\%$); Aylanma kapitalning aylanish tsikli ($WCC = DIO + DSO - DPO$); Joriy likvidlik koeffitsienti ($CR = \text{Aylanma Aktivlar} / \text{Qisqa Muddatli Majburiyatlar}$).


Raqamlashtirish indeksi (DI — 0 dan 100 gacha bo’lgan shkala bo’yicha ERP, CRM, BI va avtomatlashtirish darajasini ko’rsatadi) hamda korxona ROE koeffitsienti o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash uchun quyidagi ko’p omilli chiziqli regressiya modeli tuzildi:

$$ROE_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot DI_i + \beta_2 \cdot Size_i + \beta_3 \cdot Lev_i + \varepsilon_i$$

Bu yerda: ROE_i — i-korxonaning o’z kapitali rentabelligi (%); DI_i — i-korxonaning raqamlashtirish indeksi; $Size_i$ — korxona hajmi (aktivlarning natural logarifmi, $\ln(\text{Assets})$); Lev_i — moliyaviy richag/qarz koeffitsienti ($\text{Total Liabilities} / \text{Total Assets}$); ε_i — tasodifiy xatolik. Modelning ishonchligi Verbeek [25] tomonidan taklif etilgan zamonaviy ekonometrik diagnostika usullari (heteroskedastiklik va multikollinearlik testlari) yordamida tekshirildi.

Tadqiqotning konseptual modeli 1-rasmda keltirilgan bo’lib, unda mustaqil omillar (DI , $Size$, Lev) boshqaruv jarayoni orqali natijaviy moliyaviy ko’rsatkichlarga (ROE , WCC , moliyaviy barqarorlik) qanday ta’sir ko’rsatishi tasvirlangan.

Mazkur maqola matnini tayyorlashda sun’iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi.




Rasm 1. Tadqiqotning konseptual modeli

Jadval 2. Tadqiqot o’zgaruvchilari

O’zgaruvchi	Turi	O’lchov birligi	Manba
ROE (bog’liq o’zgaruvchi)	Miqdoriy	%	№2-shakl “Moliyaviy natijalar”
DI — Raqamlashtirish indeksi (mustaqil)	Miqdoriy (indeks)	ball, 0–100	Ichki audit / ekspert baholash
Size — korxona hajmi (nazorat)	Miqdoriy	$\ln(\text{aktivlar, mln so'm})$	№1-shakl “Balans”
Lev — moliyaviy richag (nazorat)	Miqdoriy	koeffitsient	№1-shakl “Balans”
WCC — aylanma kapital tsikli	Miqdoriy	kun	Buxgalteriya hisoboti
CR — joriy likvidlik koeffitsienti	Miqdoriy	koeffitsient	№1-shakl “Balans”
ROS — operatsion rentabellik	Miqdoriy	%	№2-shakl “Moliyaviy natijalar”
IRR — investitsion loyihalar rentabelligi	Miqdoriy	%	Investitsion hisobotlar

Metodologik jarayonning izchilligi (muammo → maqsad → gipoteza → ma’lumotlar yig’ish → statistik/ekonometrik tahlil → natijalar → tavsiyalar) 2-rasmda sxematik tarzda aks ettirilgan.



Rasm 2. Tadqiqot metodologiyasi sxemasi


TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonalarida raqamli menejment va ERP tizimlarining tatbiq etilishi moliyaviy barqarorlik va samaradorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Asosiy tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Jadval 3. Asosiy tahlil natijalari (yuqori darajada raqamlashtirilgan guruhning raqamlashtirish darajasi nisbatan past guruhga nisbatan ko'rsatkichlari)

Ko'rsatkich	Qiymat (yuqori guruh)	O'zgarish (%)	Izoh
O'z kapitali rentabelligi, ROE (%)	21.6	+120.4%	Yuqori raqamlashgan korxonalarda deyarli 2 barobar yuqori
Operatsion rentabellik, ROS (%)	18.2	+142.7%	Operatsion samaradorlik sezilarli darajada oshgan
Aylanma kapital tsikli, WCC (kun)	42.5	-45.7%	Aylanma mablag'lar sezilarli tezroq aylanadi
Joriy likvidlik koeffitsienti, CR	1.85	+60.9%	Qisqa muddatli to'lov qobiliyati yuqori
Boshqaruv xarajatlari ulushi (%)	6.4	-54.9%	Xarajatlar nazorati va resurs optimizatsiyasi kuchaygan
Investitsion loyihalar IRR (%)	24.5	+107.6%	Investitsiya qarorlari sifati va samaradorligi oshgan

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, raqamli menejment platformalariga ega korxonalarning ROE koeffitsienti raqamlashtirish darajasi nisbatan past korxonalarga qaraganda 11,8 foiz bandga yuqori bo'lgan, aylanma kapitalning aylanish sikli esa 35,7 kunga qisqargan. Bu holat pul oqimlarini yanada samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytirgan. Natijalar 3-rasmda grafik tarzda aks ettirilgan.



Rasm 3. Natijalar diagrammasi

Ekonometrik regressiya tahlili natijalariga ko'ra quyidagi tenglama olindi ($R^2=0.784$, $p<0.001$):

$$ROE = 4.12 + 0.184 \cdot DI + 1.25 \cdot Size - 0.082 \cdot Lev$$

Ushbu tenglama shuni anglatadiki, korxonadagi raqamlashtirish indeksining (DI) 10 punktga oshishi o'z kapitali rentabelligini o'rtacha 1,84 foiz bandga oshiradi. Korxona hajmi (Size) ham ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirga ega bo'lib, ko'lam samarasi (economies of scale) mavjudligini tasdiqlaydi. Moliyaviy richag



(Lev) koeffitsientining teskari yo'nalishdagi ta'siri esa qarz mablag'laridan foydalanish darajasi bilan rentabellik o'rtasidagi muvozanatni samarali boshqarish muhimligini ko'rsatadi. Shu tariqa, tadqiqotning barcha ishchi gipotezalari to'liq yoki qisman tasdiqlandi: raqamlashtirish darajasi bilan ROE o'rtasidagi bog'liqlik statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy (to'liq tasdiqlandi); yuqori darajada raqamlashtirilgan guruhda aylanma kapital sikli sezilarli darajada qisqargan (to'liq tasdiqlandi); korxona hajmi va moliyaviy richagning ROE ko'rsatkichiga qo'shimcha ta'siri ham o'z tasdig'ini topdi (qisman tasdiqlandi).

Olingan empirik natijalar xalqaro olimlar [18; 13; 15] tomonidan ilgari surilgan raqamli aktivlarning korxona operatsion va moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi haqidagi nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Wamba va boshqalarning [17] katta ma'lumotlar tahlili va dinamik qobiliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi xulosalari ushbu tadqiqotda aniqlangan DI-ROE bog'liqligi bilan mos keladi. O'zbekiston sanoat korxonalari misolida o'tkazilgan ushbu tadqiqot, shuningdek, Vohidov [21] va Tursunov [20] tomonidan olib borilgan mahalliy tadqiqotlar natijalarini miqdoriy ekonometrik dalillar bilan boyitadi. Nazariy jihatdan olingan natijalar kapital strukturasi nazariyasi [10; 11; 12] va raqamli transformatsiya nazariyasi [14; 15] o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan mustahkamlaydi.

Raqamli menejment vositalari uch asosiy kanal orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi aniqlandi: xarajatlar nazorati va resurslarni optimallashtirish — ERP va avtomatlashtirilgan xaridlar tizimi ta'minot zanjiridagi xarajatlarni yanada maqbullashtirish imkonini beradi; aylanma kapital va pul oqimlarini boshqarish — debitorlik qarzlari va zaxiralarning real vaqt rejimida monitoring qilinishi pul mablag'laridan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi; investitsion qarorlarning aniqligi va risk-menejment — DCF va real opsionlar metodlari yordamida avtomatlashtirilgan tahlil investitsion loyihalarning IRR ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida moliyaviy va operatsion bo'linmalar o'rtasida axborot almashinuvini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Mazkur yo'nalishlar va ularni samarali rivojlantirish bo'yicha takliflar 4-jadvalda umumlashtirilgan.

Jadval 4. Takomillashtirish yo'nalishlari va taklif etilayotgan yechimlar

Muammo	Sabab	Taklif	Kutilayotgan natija
Moliyaviy va operatsion bo'linmalar o'rtasida axborot uzilishi	Integratsiyalashtirilgan IT-infratuzilmaning yo'qligi	Yagona ERP/BI platformasini bosqichma-bosqich joriy etish	Strategik qarorlar tezligi va sifatining oshishi
Aylanma kapitalning uzoq aylanish tsikli (past guruhda 78.2 kun)	Debitorlik/kreditorlik qarzlarni qo'lda boshqarish	Avtomatlashtirilgan skoring va monitoring tizimlarini joriy etish	WCC ko'rsatkichini 45 kundan oshirmaslik
Investitsion loyihalarni baholashda tizimli metodikaning yo'qligi	DCF/real opsionlar usullaridan foydalanmaslik	Investitsion tahlil dasturiy vositalarini joriy etish	IRR va loyiha tanlash sifatining oshishi
Moliyaviy risklarni stsensariy tahlili orqali baholamaslik	Malakali kadrlar va dasturiy ta'minot yetishmasligi	Risk-menejment blokini shakllantirish, Monte-Carlo simulyatsiyasini joriy etish	Valyuta/foiz stavka risklaridan yo'qotishlarning kamayishi

Tadqiqot natijalarini talqin qilishda uning metodologik doirasini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Tanlanma 35 ta korxonani qamrab olgan, raqamlashtirish indeksi qisman ekspert baholashlari asosida shakllantirilgan hamda tadqiqot uchta sanoat tarmog'i — ishlab chiqarish, neft-gaz uskunolari va mashinasozlik yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan. Shu sababli kelgusida tanlanma hajmini kengaytirish va boshqa tarmoqlarni ham qamrab olish natijalarning umumlashtirish imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari sanoat korxonalarning moliyaviy barqarorligi va investitsion strategiyalari samaradorligini oshirishda zamonaviy menejment hamda raqamli FinTech texnologiyalarining integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi — raqamlashtirish indeksi, korxona hajmi va moliyaviy richag omillarini birlashtirgan integratsiyalashtirilgan ekonometrik modelning O'zbekiston sanoat korxonalari misolida birinchi marta ishlab chiqilganligi va sinovdan o'tkazilganligidadir. Mazkur model nazariy jihatdan kapital strukturasi va raqamli transformatsiya nazariyalari o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi, amaliy jihatdan esa korxona rahbariyatiga miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi vositani taqdim etadi.



Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: sanoat korxonalarida ERP va BI tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish; debitorlik va kreditorlik qarzlari avtomatlashtirilgan skoring usuli asosida boshqarish orqali aylanma kapital siklini 45 kundan oshirmaslikka yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish; investitsion strategiyalarni rejalashtirishda ssenariy tahlilini (Monte-Carlo simulyatsiyasi) amalga oshiruvchi moliyaviy risk-menejment blokini joriy etish; boshqaruv xodimlari va moliya mutaxassislari uchun raqamli iqtisodiyot va data analytics yo'nalishlarida malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish; davlat miqyosida kichik va o'rta sanoat korxonalarini raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi subsidiya hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada kengaytirish.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun sun'iy intellekt asosidagi bashoratlash modellarini moliyaviy barqarorlikni baholash jarayonlariga tatbiq etish, tadqiqot doirasini boshqa sanoat tarmoqlari hisobiga kengaytirish hamda O'zbekiston korxonalarini boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalari bilan xalqaro qiyosiy tahlil qilish istiqbolli ilmiy yo'nalishlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. Lex.uz
2. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). *Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation*. Harvard Business Review Press. Harvard Business Review Press
3. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How smart, connected products are transforming competition. *Harvard Business Review*, 92(11), 64–88. Harvard Business Review
4. Bierman, H., Jr., & Smidt, S. (2012). *The Capital Budgeting Decision: Economic Analysis of Investment Projects*. Routledge. Routledge
5. Damodaran, A. (2015). *Applied Corporate Finance* (4th ed.). John Wiley & Sons. Wiley
6. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2020). *Financial Management: Theory & Practice* (16th ed.). Cengage Learning. Cengage
7. Gitman, L. J., & Zutter, C. J. (2015). *Principles of Managerial Finance* (14th ed.). Pearson. Bibliographic record
8. Ross, S. A., Westerfield, R. W., Jaffe, J. F., & Jordan, B. D. (2019). *Corporate Finance* (12th ed.). McGraw-Hill Education. McGraw-Hill bibliographic record
9. Drucker, P. F. (2017). *The Practice of Management*. Routledge. Routledge edition record
10. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. *American Economic Review*, 48(3), 261–297. American Economic Association
11. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305–360. DOI: 10.1016/0304-405X(76)90026-X. DOI / ScienceDirect
12. Myers, S. C. (1984). The capital structure puzzle. *The Journal of Finance*, 39(3), 574–592. DOI: 10.1111/j.1540-6261.1984.tb03646.x. DOI / Wiley Online Library
13. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., & Venkatraman, N. (2013). Digital business strategy: Toward a next generation of insights. *MIS Quarterly*, 37(2), 471–482. DOI: 10.25300/MISQ/2013/37:2.3. DOI / MIS Quarterly
14. Matt, C., Hess, T., & Benlian, A. (2015). Digital transformation strategies. *Business & Information Systems Engineering*, 57(5), 339–343. DOI: 10.1007/s12599-015-0401-5. DOI / Springer
15. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. *The Journal of Strategic Information Systems*, 28(2), 118–144. DOI: 10.1016/j.jsis.2019.01.003. DOI / ScienceDirect
16. Fitzgerald, M., Kruschwitz, N., Bonnet, D., & Welch, M. (2014). Embracing digital technology: A new strategic imperative. *MIT Sloan Management Review*, 55(2), 1–12. MIT Sloan Management Review / HBR Store record
17. Wamba, S. F., Gunasekaran, A., Akter, S., Ren, S. J. F., Dubey, R., & Childe, S. J. (2017). Big data analytics and firm performance: Effects of dynamic capabilities. *Journal of Business Research*, 70, 356–365. DOI: 10.1016/j.jbusres.2016.08.009. DOI / ScienceDirect
18. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (2004). *Strategy Maps: Converting Intangible Assets into Tangible Outcomes*. Harvard Business School Press. Harvard Business Review Press
19. Mustafaulov, Sh. I. (2017). *Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisod-Moliya. Bibliografik tasdiq manbasi



20. Tursunov, B. O. (2022). Sanoat korxonalarida aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. *Moliya va bank ishi*, 4(1), 112–120. “Moliya va bank ishi” jurnalining rasmiy sayti
21. Vohidov, A. A. (2024). Raqamli transformatsiya sharoitida korporativ boshqaruv samaradorligi. *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 2, 88–94. Jurnal arxivi
22. Karimov, N. G., & Vaziriy, A. (2023). Korporativ moliya va investitsion jozibadorlikni oshirish strategiyalari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 11(3), 45–56. Jurnalning rasmiy sayti
23. Ziyayev, M. K. (2023). Sanoat sohasi korxonalarining investitsion va risk-menejment strategiyalari. *Bozor, pul va kredit*, 8, 34–41. “Bozor, pul va kredit” jurnali haqidagi rasmiy ma'lumot
24. Nazarova, N. Y. (2026). *Assessment of Regional Economic Progress Using Artificial Intelligence* (Master's thesis). New Uzbekistan University, Tashkent. New Uzbekistan University
25. Verbeek, M. (2017). *A Guide to Modern Econometrics* (5th ed.). John Wiley & Sons. Wiley / Erasmus University bibliographic record



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
